


**Farg'ona viloyatida
kichik tadbirkorlik**


2018 yilning yanvar-iyunida 2,0 mingta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi va o'tgan yilning shu davriga nisbatan 94,0 foizni tashkil qildi.

Eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar sanoat tarmog'ida (31,3 %), savdo sohasida (21,5 %), qurilishda tarmog'ida (11,2 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (7,6 %), yashash va ovqatlanishda (6,0 %), tashish va saqlashda (4,3 %) tashkil etilgan.

**2018 yil yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan
kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy
faoliyat turlari bo'yicha ulushi**




2018 yilning yanvar-iyunida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda).



2018 yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) hududlar bo'yicha eng ko'p ko'rsatkich Quvasoy shahrida 26,3 birlikda, Farg'ona shahrida 15,8 birlikda, Dang'ara tumanida 13,5 birlikda, Furqat tumanida 13,2 birlikda, Qo'qon shahrida 13,1 birlikda, o'rtacha ko'rsatkich 8-13 birlik oralig'ida Yazyavon, Quva, Farg'ona, So'x, Rishton, Uchko'prik, Toshloq, O'zbekiston, Bag'dod, Beshariq, Oltiariq tumanlari va Marg'ilon shahrida aniqlandi. Qo'shtepa tumanida 7,8 birlikda va Buvayda tumanida 7,3 birlikda ushbu ko'rsatkich past bo'lib qolmoqda.

**Kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni
(har 1000 aholiga, birlikda), yanvar-iyun holatiga.**




2016 yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) 9,6 birlikda bo'lib, 2017 yilda 10,8 birlikni tashkil etdi. 2018 yilda bu ko'rsatkich 11,6 birlikka yetdi. Bu esa, 2016 yil ko'rsatkichidan 2 birlik yuqori.

**2018 yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlikning
YaHMDagi ulushi**

2018 yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlikning YaHMDagi ulushi 61,6 % ni tashkil qildi (2017 yilning yanvar-iyunida 64,9%). YaIM tarkibida pasayishi yirik korxonalar ulushi oshishi bilan tushuntiriladi.

**Kichik tadbirkorlikning YaIMdagi ulushining pasayishi
dinamikasi yanvar-iyun holatiga, %**



**2018 yil yanvar-iyunida kichik tadbirkorlikning
hududlar bo'yicha ulushi (% da)**

	<i>Sanoat</i>	<i>Qurilish</i>	<i>Xizmatlar</i>
Farg'ona viloyati	32,1	93,9	74,2
<i>Shahr va tumanlar</i>			
Oltiariq	100,0	100,0	97,6
Qo'shtepa	100,0	100,0	100,0
Bag'dod	52,3	99,1	98,5
Buvayda	100,0	100,0	99,5
Beshariq	58,3	100,0	98,5
Quva	68,9	100,0	97,6
Uchko'priq	85,2	96,3	99,5
Rishton	65,0	100,0	92,1
So'x	100,0	100,0	100,0
Toshloq	27,3	90,7	97,5

davomi

	<i>Sanoat</i>	<i>Qurilish</i>	<i>Xizmatlar</i>
O'zbekiston	80,5	99,1	99,7
Farg'ona t	100,0	97,8	86,0
Dang'ara	100,0	99,1	98,4
Furqat	93,5	100,0	100,0
Yozyovon	100,0	92,4	98,9
Farg'ona sh	17,5	93,3	46,7
Qo'qon sh	18,1	66,4	92,3
Quvasoy sh	16,9	98,9	96,9
Marg'ilon sh	100,0	100,0	97,1

2018 yilning yanvar–iyunida kichik tadbirkorlik sub`ektlari tomonidan:

– sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 1777,3 mlrd. so`mni (jami sanoat ishlab chiqarishining 32,1 %) yoki 2017 yilning yanvar–iyuniga nisbatan o`shish sur`ati 101,1 %ni tashkil qildi;

– 905,6 mlrd. so`mlik investitsiyalar (umumiy investitsiyalar hajmining 57,9 %i) o`zlashtirildi va 2017 yilning yanvar–iyuniga nisbatan o`shish sur`ati 100,8 %ni tashkil qildi;

– 1131,4 mlrd. so`mlik qurilish ishlari (qurilish ishlari umumiy hajmining 93,9 %) bajarildi va 2017 yilning yanvar–iyuniga nisbatan o`shish sur`ati 110,4 % ni tashkil qildi;

– 3067,8 mlrd.so`mlik xizmatlar ko`rsatilib (viloyat jami xizmatlar xajmining 74,2 %), 2017 yilning yanvar–iyuniga nisbatan o`shish sur`ati 103,0 % ni tashkil qildi;


– chakana tovar aylanmasi umumiy hajmining 90,5 % yoki 4991,1 mlrd. so`mi (o`shish sur`ati 1,8 % ni tashkil qildi) shakllantirildi;

– 2723,3 mln. AQSh dollari (umumiy eksport hajmining 34,9 %) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksport qilindi, bu esa 2017 yilga nisbatan 1022,8 mln. AQSh dollariga yoki 60,1 % ga ko`p;


– avtomobil transporti yuk aylanmasining 6,0 %ga (viloyat jami avtomobil transporti yuk aylanmasining 96,4 %) ko`payishi ta`minlandi;

– yo`lovchi aylanmasining esa 2,6 % ga (umumiy yo`lovchi aylanmasining 95,8 %) ko`payishi ta`minlandi;

Kichik tadbirkorlikning ulushi (umumiy hajmiga nisbatan % da)




2018 yil yanvar-iyunida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi va sur'ati



Hududlar bo'yicha eng ko'proq sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Farg'ona shahri (332,6 mlrd.so'm), Dang'ara tumani (305,2 mlrd.so'm), Marg'ilona shahri (226,2 mlrd.so'm), Buvayda tumani (137,1 mlrd.so'm), Toshloq tumani (132,2 mlrd.so'm) va Qo'qon shahri (125,2 mlrd.so'm) hissasiga to'g'ri keladi. Furqat (2,1 mlrd.so'm), Uchko'prik (2,8 mlrd.so'm), Rishton (11,4 mlrd.so'm), va Bag'dod (16,2 mlrd.so'm) tumanlarida ushbu sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi past bo'lib qolmoqda.




2018 yil yanvar-iyunida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana tovar aylanmasi hajmi va sur'ati



Hududlar bo'yicha ko'proq chakana tovar aylanmasi hajmi Fargona (1069,6 mlrd.so'm), Qoqon (501,1 mlrd.so'm), Margilon (385,6mlrd.so'm) shaharlari va Farg'ona (285,6mlrd.so'm), Qoshtepa (285,1mlrd.so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.



2018 yil yanvar-iyunida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va sur'ati




Hududlar bo'yicha ko'proq xizmatlar hajmi Fargona shahri (854,7 mlrd.so'm), Qoqon shahri (493,2 mlrd.so'm) va Margilon shahri (421,1 mlrd.so'm) va Farg'ona (285,6 mlrd.so'm) Qo'shtepa (285,1 mlrd.so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2018 yil II - chorak yakunlariga ko'ra, yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarda tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi. Unda 60 dan ortiq respondentlar ishtirok etdi.

Kuzatuv ma'lumotlari tahlili, qurilish sohasida respondentlarning 33,3 % iqtisodiy vaziyatni – qulay va 33,3% esa qoniqarli deb hisoblashini, mos ravishda savdo sohasida –30,8% va 38,5%, xizmatlar sohasida –58,8% va 23,5%, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida –50,0% va 50,0%, sanoatda – 55,0% va 20,0%ni tashkil qilganini ko'rsatdi.


Joriy iqtisodiy vaziyatga pessimistik ruhda yondashganlar sanoatda – 25,0%, qurilishda –33,3%, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 0,0%, xizmatlarda –17,6% va savdoda –30,8%ni tashkil qildi.

Iqtisodiy vaziyatni baholash 2018 yil II-chorak uchun, %



Iqtisodiy vaziyat yaxshilanishi yaqin uch oyda 65,0% sanoat korxonalari, 46,2% – savdo, 88,2 % – xizmatlar, 100,0 % – qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi va 50,0% – qurilish tarmog`ida kutilmoqda.

Iqtisodiy vaziyatdagi o`zgarishlar istiqbolini yaqin uch oyda baholanishi, %



Tahlil natijalaridan kelib chiqib, yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarga biznes muhitini yaxshilash uchun ko`rilayotgan chora tadbirlar natijasida respondentlar yaqin istiqbolda umumiy iqtisodiy vaziyatning yaxshilanishini ijobiy baholayotganligini xulosa qilish mumkin.

**FARG'ONA VILOYAT
STATISTIKA BOSHQARMASI**
Ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari,
tadbirkorlikni rivojlantirish bo'limi
Nashr uchun mas'ul: J.Artikov
Tel.: (0371) 230-87-35